

**BADIIY MATN SOTSIAL QATLAM NUTQINING MILLIY-MADANIY
XUSUSIYATLARI: QARG‘ISH VA HAQORAT SO‘ZLAR SEMANTIKASI
(TOG‘AY MURODNING “ OTAMDAN QOLGAN DALALAR”
ROMANI MISOLIDA)**

Ozodaxon Mardonova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Lingvistika(o‘zbek tili) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matn sotsial qatlam nutqida qo‘llanilgan lingvokulturalogik birliklardan: qarg‘ish va haqorat so‘zlar va ularning o‘zbek frazeologik lug‘atida mavjud va mavjud bo‘lmaganlarining sharhi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, semantika, haqorat birliklari, odatiy qarg‘ishlar, foydali qarg‘ishlar, undovlar, adabiy nutq, badiiy nutq, frazeologik birliklar, gender kategoriyasi.

**NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF THE SPEECH OF THE
SOCIAL LAYER OF THE ARTISTIC TEXT: THE SEMANTICS OF CURSING
AND INSULTING WORDS (IN THE EXAMPLE OF TOGAY MURAD'S NOVEL
"THE FIELDS LEFT FROM MY FATHER")**

Abstract: This article presents a review of the linguistic and cultural units used in the speech of the social stratum of the artistic text: cursing and insulting words and their presence and non-existence in the Uzbek phraseological dictionary.

Key words: proverb, semantics, insulting units, habitual curses, useful curses, exclamations, literary speech, artistic speech, phraseological units, gender category
**НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СОЦИАЛЬНОГО
СЛОЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА: СЕМАНТИКА РУГАТЕЛЬНЫХ И
ОБИДНЫХ СЛОВ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА ТОГАЙ МУРАДА "ПОЛЯ,
ОСТАВШИЕСЯ ОТ МОЕГО ОТЦА").**

Аннотация: В данной статье представлен обзор лингвокультурных единиц, используемых в речи социального слоя художественного текста: ругательные и оскорбительные слова, их наличие и отсутствие в узбекском фразеологическом словаре.

Ключевые слова: пословица, семантика, оскорбительные единицы, привычные ругательства, полезные ругательства, восклицания, литературная речь, художественная речь, фразеологизмы, гендерная категория,

Kirish. Badiiy asar tili o‘ziga xos bo‘lib, uni til sathining turli jabhalarida talqin qilish, xususan, madaniy birliklariga ko‘ra sharhlash murakkab hodisalardan hisoblanadi. Inson o‘zligini ifodalashda aytilgan takomil yo‘li jarayonlarida tildan foydalanishning, mazkur nutq parchalarini bir-biri bilan biriktirishning shunday usullarini ham kashf etganki, natijada badiiy nutq deyiladigan mo‘jizakor bir vositaning muallifiga aylangan. Ana shunday go‘zal nutqning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so‘z durdonalari — afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqol-u matallar, topishmoqlar, qo‘shiqlar, she‘rlar, dramalar, hikoya, qissa va romanlar insoniyat badiiy dahosining noyob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda, va, albatta, bundan keyin ham yaratiladi. Ammo badiiy adabiyot deyiladigan ana shu o‘ziga xos maydondagi tilning hayotini o‘rganish borasida, garchi bu muammoni o‘rganishning ibtidosi eng qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, munozara-yu muhokamalar, bahslar hech qachon tingan emas. “ Badiiy matn poetikasi” {p. 3, b -3}

Badiiy asar tili tadqiqi bilan shug‘ullangan V.Vinogradov o‘zining “ Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari” nomli ma‘ruzasida badiiy adabiyot tili haqida bahs yuritib “ til” so‘zini ikki xil ma‘noda qo‘llaydi, ya‘ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi “nutq” yoki “matn” (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma‘nosida; 2) “san‘at tili”, badiiy ifoda vositalari sistemasi ma‘nosida. “. Проблемы русской стилистики” {p. 2, b-84}

Badiiy asarlar tili xalq hayoti, sotsial qatlam turmush tarzi, madaniyati haqida ham qimmatli manba hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Xalq Yozuvchisi Tog‘ay Murod ijodi chinakam “san‘at tilida” yozilganligi bilan ajralib turadi. “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi milliy-madaniy, sotsial birliklar nutqi o‘zbek xalqining yozuvchi o‘z ta‘biri bilan aytganda “ haykali” bo‘la oldi. Yozuvchi o‘zbek obrazini tasvirlar ekan, uning tilidagi har so‘zga alohida ma‘no yuklashga harakat qiladi. Hatto qarg‘ishlar, haqorat birliklaridan foydalanishda ham adabiy mahoratning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Maqola davomida ulardan ayrimlari semantikasi, stilistikasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Qarg‘ishlar.Asarlarni tahlil qilish davomida qarg‘ishlarning ikki xil ma‘noda qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli ham ularni ikki guruhga bo‘lib tahlil qildik.

1. Odatiy qarg‘ishlar:

Odatiy qarg‘ishlarda yomonlik tilash ma‘nosi ustunlik qiladi. Bunda hissiy-ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida Alloh nomini qo‘shib duoibad qilish, o‘lim tilash, sha‘ni, qadr-qimmatini toptashga qaratilgan jumlar ham ishlatiladi. Quyida sotsial qatlam nutqida qo‘llanilgan shunday birliklarning ayrimlari bilan tanishamiz:

Aqrab nutqida:

“— Ay, Normurod xunasa! — deya ket buriladi otamiz. — Sen meni o‘rislarga ushlab berding! *Iloyim, qarigan chog‘ingda tentak bo‘l, ayolingni uch taloq qo‘y, elga ermak, xalqqa shaloq bo‘lib o‘l, ollohu akbar!*” (OQD.53-b)

Bolxin momo nutqida:

Frazeologik birliklarning gender kategoriyasini o‘rganish jarayonida qarg‘ishlarda asosan ayollar nutqi ustunlik qilishiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa keksa yoshdagi ayollardan hali qulog‘imiz eshitmagan qarg‘ish namunalarini yozib olish mumkin. Qarg‘ishlarning uslubiy xilma -xilligi, takroriy, yuklamalar (-gina, -a) kelishi ularning ma‘no bo‘yoqdorligini yana-da oshiradi. Asar qahramoni Bolxin momo nutqida qo‘llangan qarg‘ishlarda bu holat, ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘ladi. Momo nutqida qo‘llangan odatiy va foydali qarg‘ishlar bilan tanishamiz:

1. “— *E, qirilib qirg‘inni oldidan ketsin, bundaychikin qahramon!*”

2.— O‘rtoq Jamoliddinov tabiiy ofatni ko‘ksi bilan to‘sib, Matrosov jasoratini takrorlagan! — dedi Ideologiya.

“— *E, kafanini bichayin, bundaychikin Matrosovni, kafanginasini bichayin!* — Baqirmang-ye, ena... — dedim. — Baqiraman! — shang‘illadi onamiz. — O‘lib ketsang, bola-baqrangni kim boqadi?! — Uf-f, ena...”

3.— *Ha, fotihangga borayin sendaychikin Matrosovni, fotihaginningga borayin!*

4. ..."*Tirnog‘ingni olib yursang o‘lasanmi, qirilib ketgur*"(OQD.180-b)

5.— *Ko‘rgiliging ko‘p bo‘lsin, sendaychikin erkakni!* (OQD.230-b)

6.— *Ha, dalang bilan qo‘shilib chalpak bo‘lgin, chalpakkina bo‘lgin! Ha, dalang bilan qo‘shilib qo‘shmozor bo‘lgin, qo‘shmozorgina bo‘lgin!* (OQD.230-b)

7.— Beshikni nimaga tomga olib chiqding, *yerchilim bo‘lgur?* (248-b)

8. —Ha, qo‘ling sinsin-a, shugina norasidani urgan qo‘lginang sinsin-a!(OQD.267-b)

9.— Shugina uchun norasida bolani og‘zi burnini qon qilasanmi, *yerparchin bo‘lgur?*

10.— O‘ynab qo‘yay shuginadan, shuginani kilosi uch so‘m turadi! — Shu ikkovgina ikkovgina xurmoga-ya? *Ha, qirchiningdan qiyilgin, qirchinginangdan qiyilgin!* — Ikkovgina bo‘lgan bilan salkam bir kilo keladi! — Bir kilo kelsa nima bo‘pti? *Ha, xurmolaring boshingdan qolsin, boshginangdan qolsin!*

— Ertaga mehmon kelsa, oldiga nima qo‘yaman? Birovini bunisi yesa, birovini unisi yesa, mehmonlar nimani yeydi?

— Nima, mehmonlardan xurmo qarzing bormi, *yerchilim bo‘lgur?*

11.— Shu, *kallapoycha qilayin* qo‘yni ertaroq pulla, dedim...

11. Uslubiy ma‘noda.

— Seni men emas — seni Xudo qarg‘agan.

— Xudo qarg‘agan? Eb-ye, men xudoga nima yomonlik qildim-ye? Xudo nima deb qarg‘agan-ye?

— Xudo, *iloyim, shu o'zbek degichni topgani aziz mehmoniga buyursin, deb qarg'agan!*

Raisning ayoli nutqida:

“ — Ha, *kuydirgi chiqsin, nozik ta'biga, kuydirgigina chiqsin!* Yana-tag'in, maylis poylab qozon qaynataman. Maylisi o'lgur bo'lsa, yarim kechasi tamom bo'ladi!”(OQD.184-b)

Foydali qarg'ishlar:

Bolxin momo nutqida: “— Ha, *oshingni yeyin sen tentakni, oshginangni yeyin!*” (43)

Ha-a, kelin? — dedi onamiz. — Anavi *oshingni yeyin* Matrosov nima deyapti?” (OQD.165-b)

Haqorat birliklari.

Chuchela. "Otamdan qolgan dalalar" romanida bu so'z haqorat birligi sifatida ishlatilib, ruslar tomonidan yerlik aholiga qarata aytilgan. Asl ma'nosi hayvonlarni qotirib tayyorlanadigan tulum bo'lib, asarda tosh qotgan, tasqara ma'nosida kelgan.

To'qqiz qaytgan. "Otamdan qolgan dalalar" romanida Jamoliddin ketmon, Aqrab tilidan aytilgan shevaga xos so'kish so'z. Uylanolmagan, hech kim qiz bermagan, fotihasi buzilgan, to'qqizi qaytgan, zaif ma'nolarida keladi.

— Senga nima edi, no'g'ay? — deydi bobomiz. — Sen to'qqiz qaytganga nima edi?

— Ay, Chanishev-ay! To'qqiz qaytgan-ay! — deya kuladi otamiz. — Yurakdan-da bor ekan-da!

O'ynab qo'yay. Shevaga xos so'kish so'z.

Dehqonqul tilidan: Direktorimiz eshikni ichkaridan qulflab joriya etadi:

“ — O'rtoqlar, beshinchi sinfdan boshlab barcha paxta frontiga safarbar etiladi! O'ynab qo'yay, beshinchidan, o'ynab qo'yay, deyman! To'rtinchidan beshinchiga ko'chganlarimga pushaymon bo'laman. (OQD. 64-b)

Ota-bobosidan eshitaverib qulog'iga quyilib qolgan Dehqonqul nutqida parazit birlikka aylanib qolgani haqida ham ma'lumot berib o'tilgan:

Men deraza ostini olaman. Bo'xchamni gupillatib tashlayman-da — ustiga uzala tushib yotib olaman. — O'ynab qo'yay, deraza ostidan, o'ynab qo'yay! — deyman. O'ninchi sinf bolalar gapimdan kulishib-kulishib gapirishadilar: — Nega shu bola gapi o'rolida o'ynab qo'yay, deydi? — Odati-da. — Nega o'ynab qo'yay, deydi? — Kim biladi. Ziyod degichi gapi o'rolida masalan, masalan, deydi. Shunday gap-da” .(OQD.66-b)

Yoki: “ O'ynab qo'yay, paxtalaridan, o'ynab qo'yay, shu paxta degichni kim o'ylab chiqardi ekan-a, deyman” .(OQD.69-b)

Shunday vaqtda yaratganni o'ziga-da ha, demayman. O'ynab qo'yay, notanti-notanti qiliqlaringdan o'ynab qo'yay, deyman. (OQD.1

27-b);

— O‘ynab qo‘yay, brigadnr degich otdan, o‘ynab qo‘yay. Brigadir bir dehqonda(OQD.129) Otangni iligiga. Yumshoq ma‘nodagi so‘kish so‘z. Odatda yosh bolalarga yoki ayollar nutqida aytilganda uyatli haqoratli so‘kish so‘zlar ishlatilmaydi. Shunday hollarda otangni choponi, otangni iligiga kabi birliklardan foydalaniladi.

Tekintomoq. Mehnat qilmay ovqat yeydigan. Pulini bermay tekinga ovqatlanadigan. Haqqini ado qilmaydigan. Direktor nutqida:“ — Ertadan boshlab manavi tekintomoqlarga go‘shtsiz ovqat berasan! Agar ushoqday go‘sh t bersang — kuningni ko‘rasan!”

Tirrancha. Kichik, mayda. Kichkina bola ma‘nosida

Direktor nutqida :— Sen tirranchalarga choyni kim qo‘yibdi?! Ana, ariq to‘la suv — ariqdan ich!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qarq‘ish birliklar ham haqorat so‘zlar ham qay o‘rinda kelishiga ko‘ra stilistik, semantik, lingvokulturalogik ma‘nosini bir qanvha o‘zgartiradi. Ularning ma‘nolarini anglash, o‘quvchi avlodga to‘g‘ri yetkazib berish tilshunoslar orasidagi muhim vazifalardan bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn poetikasi. Toshkent.,Fan, 2008 b-3
2. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. —М.: Высшая школа. 1981. С.84.